

## MAXSUS PEDAGOGIKADA KORREKSION ISH JARAYONIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

**Saydaliyeva Xojiya Abdujalil qizi**

*Alfraganus universiteti Pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika: Logopediya  
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maxsus pedagogikada korreksion ish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishning ahamiyati va samaradorligi yoritiladi. Nutqiy va kognitiv buzilishlarga ega bolalar bilan ishlashda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashning afzalliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, interaktiv dasturlar, multimediali o‘yinlar va kompyuter ilovalarining logopedik mashg‘ulotlardagi o‘rni haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** maxsus pedagogika, korreksion ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, logopediya, interaktiv dasturlar.

### KIRISH

Zamonaviy pedagogikada axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish keng tarqalmoqda. Ayniqsa, maxsus pedagogika sohasida AKT nutqiy va kognitiv buzilishlarga ega bolalar bilan ishlash samaradorligini oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Bugungi kunda interaktiv dasturlar, multimedia vositalari va kompyuter ilovalari logopedik mashg‘ulotlar va boshqa korreksion faoliyatlarda faol qo‘llanilmoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyasi L.S.Vigotskiy, P.Y.Galperin, A.R.Luriya, A.N.Leontev, V.Y.Davidov, D.B.Elkoninlar tomonidan ishlab chiqilgan psixologik-pedagogik va metodologik qoidalarga asoslanadi. Maxsus pedagogikada korreksion ish jarayonida AKTdan foydalanish bolalarning motivatsiyasini oshiradi, didaktik materialni ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanishiga yordam beradi, pedagooglar uchun esa vaqt va mablag‘larini tejagan holda qisqa muddat ichida o‘z didaktik materiallariga ega bo‘lish imkonini beradi.

Hozirgi globallashuv davrida respublikamizda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanishni rivojlantirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Umumiy o‘rta ta’lim va oliy ta’lim tizimlarida raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanishi, elektron darsliklar, o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan maxsus multimediali vositalar va elektron platformalar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabr PQ-4884-sonli “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qaroriga asosan axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va

idoralar bilan birgalikda 2022-yil 1-yanvarga qadar maktabgacha ta’lim tizimida zamonaviy o‘qitish shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish vazifasi belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595 sonli qonunining 53-moddasida ta’lim-tarbiya jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun o‘quv-uslubiy va didaktik materiallar ishlab chiqish-ishlab chiqarish, maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish vazifalari belgilangan.

Bugungi kunning kichik yoshdanoq elektron qurilmalar ta’siriga tushgan, televizion dasturlar, internet tarmog‘i, kompyuter yoki smartfon o‘yinlari orqali katta hajmdagi ma’lumotlarni qabul qilayotgan zamonaviy bolalarning diqqatini an’anaviy ta’lim metodlarining o‘zibilangina ushlab turishning iloji yo‘q. Axborot -kommunikatsiya texnologiyalari ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, korreksiya va rivojlantirish ishlarida alohida o‘rin tutadi. AKTdan unumli foydalanish bolalarda nutq va tafakkurni rivojlantirishga xissa qo‘shadi, idrok, diqqat, xotira qobiliyatlari kabi turli ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Multimedia vositalari yordamida taqdimotda ranglarning yorqin bo‘lishi, ma’lumotlar ham ovozli, ham vizual uzatilishi bolalarda materialni yaxshi tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi.

Taqdimotda turli effektlarning qo‘llanilishi bolalarda qiziqishning ortishi va intellektual sustlikni yengishga yordam beradi. Multimediali taqdimotlar bolalardagi toliqishni kamaytiradi, turli patologiyali bolalarning bilish faolligini qo‘llab-quvvatlaydi.

Korreksion ish jarayonida AKTdan foydalanishni shartli ravishda ikki usulga bo‘lish mumkin. Birinchi usulda bolalar bevosita AKT yordamida mashg‘ulot o‘tkazsalar (<https://learningapps.org>), (<https://wordwall.net/>),

(<https://schultetable.ru/> ) , ikkinchi usulda esa pedagog bolalar uchun didaktik materiallarni tayyorlashda AKTdan foydalanadi (<https://ru.pinterest.com>),

( <https://www.canva.com> ).

“Mathland” ilovasi: Hisoblash qiyin bo‘lgan bolalar uchun matematikani vizual va o‘yin shaklida o‘rgatadi.

“Social Stories” dasturi: Autizimli bolalarga ijtimoiy normalarni tushuntirish uchun animatsion videolar yaratadi.

Zoom yoki Skype orqali logopedlar, psixologlar bilan masofadan konsultatsiyalar o‘tkazish mumkin.

Onlayn platformalar (Khan Academy Kids) orqali individual mashg‘ulotlar olib borish mumkin.

Maxsus pedagog korreksion ishning barcha bosqichlarida, ya’ni, tayyorgarlik, asosiy va yakunlovchi bosqichlarda AKTdan foydalanishi mumkin. To‘g‘ri tanlangan topshiriqlar va axborot texnologiyalari yordamida namoyish etilgan video materiallar bolalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi.


Korreksion ta’limda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan (AKT) foydalanish bir qator afzalliklarga ega:

- AKT yordamida har bir o‘quvchining ehtiyojlariga mos dasturlar yaratish va ularni shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirish mumkin;
- Maxsus animatsiyalar, interaktiv videolar, ovozli yordamchilar orqali o‘quvchilar axborotni yaxshiroq qabul qiladilar;
- Interaktiv o‘yinlar, virtual laboratoriyalar va boshqa innovatsion texnologiyalar ta’limni yanada qiziqarli va samarali qiladi;



- AKT nutq buzilishlariga ega bolalar uchun maxsus dasturlar orqali to‘g‘ri talaffuz va kommunikatsiyani rivojlantirishga yordam beradi;
- O‘quvchilar o‘zlariga qulay bo‘lgan vaqtda mustaqil o‘qish va mashqlarni bajarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar;
- Elektron kundaliklar va maxsus dasturlar o‘quvchilarning natijalarini doimiy monitoring qilish va ularning rivojlanishini kuzatib borish imkonini beradi;
- AKT yordamida masofaviy ta’lim imkoniyati paydo bo‘lib, uy sharoitida yoki maxsus markazlarda ham ta’lim olish mumkin.

Endi sizlar bilan AKT yordamida tayyorlangan bir nechta didaktik o‘yinlarni ko‘rib chiqamiz (1-jadval).

|                                                                                                         |                                                                                     |                                                                                      |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------|
| <a href="https://learningapps.org/watch?v=pg0y0of5325">https://learningapps.org/watch?v=pg0y0of5325</a> |   |   |
| <a href="https://wordwall.net/resource/88555526">https://wordwall.net/resource/88555526</a>             |   |   |
| <a href="https://learningapps.org/watch?v=pmj5nh3cn25">https://learningapps.org/watch?v=pmj5nh3cn25</a> |  |  |

1-jadval

Yuqorida keltirilgan misollardan learningApps.org sayti yordamida “Nomini top” didaktik o‘yin tayyorlash algoritmini ko‘rib chiqamiz.

Agar Learning App-da so‘zlarni topish (угадывание слов) o‘yinini yaratmoqchi bo‘lsangiz, quyidagi ketma-ketlikda ishlashingiz mumkin:

1. Avvalo g‘oyani aniqlab olish talab etiladi.

O‘yin qanday ishlaydi? (Masalan, tasodifiy so‘z beriladi va foydalanuvchi uni taxmin qiladi).

Qanday so‘zlar ishlatiladi? (Mavzuli so‘zlar to‘plami bo‘lishi mumkin).

Qanday yordam beriladi? (Masalan, harflar yoki tavsif).

2. Dastur arxitekturasini loyihalash

Foydalanuvchi interfeysi (qo‘llaydigan ilova): o‘yin ekrani, natijalar oynasi, tugmalar (masalan, “Taslim bo‘lish”, “Keyingi so‘z”)

O‘yin qoidalari: Necha urinishda to‘g‘ri javob berish mumkin? Javoblar noto‘g‘ri bo‘lsa, nima bo‘ladi? va hok.

3. O‘yin logikasini kodlash

Tasodifiy so‘z tanlash

Foydalanuvchi kiritgan javobni tekshirish

Natija chiqarish (to‘g‘ri/noto‘g‘ri)

#### 4. Foydalanuvchi interfeysini yaratish

Tugmalar, matn maydonlari, rasm va animatsiyalar qo‘shish, shuningdek, foydalanuvchi tajribasini yaxshilash.

#### 5. Sinov va xatolarni to‘g‘rilash

Har xil so‘zlarga qanday javob berilishini tekshirish va xatolarni tuzatish.

#### 6. O‘yin rivojlanishini oshirish

Ball tizimi qo‘shish. turli murakkablik darajalari, onlayn reyting tizimi kabilar.

Namuna bo‘yicha bajarish uchun havola: <https://learningapps.org/>

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi:

- Ta’lim jarayonining qiziqarli va interaktiv bo‘lishi
- Bolalarning motivatsiyasini oshirish
- Mashg‘ulotlarning samaradorligini kuchaytirish
- Nutq va kognitiv rivojlanish jarayonini tezlashtirish

Xulosa Maxsus pedagogikada AKTning qo‘llanilishi logopedik va korreksion ishlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Kompyuter dasturlari, interaktiv o‘yinlar va sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bolalarning nutqiy va kognitiv rivojlanish jarayonini yengillashtiradi hamda o‘quv jarayonini qiziqarli qiladi. Shu boisdan, maxsus ta’lim muassasalarida AKTning keng qo‘llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bogoyavlenskaya D.B. “Logopediya va AKT: Yangi yondashuvlar”. Moskva, 2020.
2. Vygotskiy L.S. “Psixologiya va nutq rivojlanishi”. Moskva, 2018.
3. Kompyuter texnologiyalarini ta’limda qo‘llash bo‘yicha metodik qo‘llanma. Toshkent, 2022.
4. Sukhareva G.A. “Bolalar logopediyasi: Nazariya va amaliyot”. Sankt-Peterburg, 2019.
5. Zimnaya I.A. “Nutq va tafakkur rivojlanishida axborot texnologiyalarining o‘rni”. Moskva, 2021.
6. Karimova Z.A. “Ko‘p tarmoqli maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarini innovatsion faoliyatga yo‘naltirish”. Monografiya. Toshkent. 2024.
7. Dvurecheskaya O.N. “Logopedik ishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish”. 2014.
8. Zulfiya Karimova, Editorial Problems of Organizing the Innovative Activity of Preschool Education Organization Editors Under Educational Cluster Conditions. (2023). Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(1), 1-10. <https://euroasianjournals.org/index.php/pc/article/view/97>